



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
X. SULAYMONOVA NOMIDAGI
RESPUBLIKA SUD EKSPERTIZA MARKAZI

O'ZBEKISTON SUD EKSPERTIZASI



Huquqiy, ijtimoiy, ilmiy-amaliy

JURNAL

2025 №3(18)

**O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi
Rayosatining 2022-yil 30-apreldagi 315/5-son qarori bilan
"O'zbekiston sud ekspertizasi" ilmiy jurnali yuridik va siyosiy
fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc)
ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga
kiritilgan.**

MUNDARIJA

Xalilov A.U. Sud-ekspertlik faoliyatini takomillashtirish va raqamlashtirish: O'zbekistonda yangi bosqich	2
Najmiddinova N.Y. Lingvistik ekspertizada haqoratning kommunikativ strategiyasini baholash asoslari.....	5
Kudaynazarov A. Xatshunoslik obyektlarini kompleks ekspertiza doirasida tadqiq etish muammosi va dolzarbligi.....	10
Xalmuxamedova S.K. Sud-soliq ekspertizasi imkoniyatlari.....	16
Berdiyarov I.H. Islom moliyasi: asosiy tushunchalar va xususiyatlar.....	22
Saitova N.S. Molekulyar genetik ekspertizasini o'tkazish bilan bog'liq xalqaro standartlar: ISO, NIST, ENFSI.....	32
Мухтарова А.Э. Современное состояние и перспективы развития судебно-психологической экспертизы в Узбекистане	37
Mansurov O.O. Ekspertiza tayinlashda tergov organlari va sudlar tomonidan yo'l qo'yiladigan kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari	41
Ramazanov S.N. Sud ishlarini hal etishga aralashganlik uchun javobgarlikni takomillashtirishning ba'zi jihatlarini	50
Шарипова Г.У. Сравнительный анализ судебной системы Юго-Восточной Азии (на примере Малайзии). Janubi-sharqiy Osiyo sud tizimining qiyosiy tahlili (Malayziya misolida).....	58
Soipov B.I. O'zbekiston va Birlashgan Arab Amirliklari: diniy bag'rikenglik siyosatining shakllanishi, rivojlanishi va hamkorlik istiqbollari.....	64
Qolqanov N.T. Yangi O'zbekiston – xalqchil siyosat va milliy tiklanish davri.....	71
Jo'raqulov F.N. Jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhitini o'rganishning ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati.....	75
Umatov A.K. Globallashuv sharoitida samarador davlat boshqaruvini rivojlantirishning mafkuraviy-siyosiy jihatlarini.....	80
Nizomova Sh.K. Dastlabki tergov jarayonida gabitoskopik ma'lumotlardan foydalanishning ahamiyati	87
Sadriddinova L.H. Yarashuv institutini jinoyat ishlari bo'yicha yuqori instansiyada joriy etish zarurmi?.....	92
Zuhriddinov F.Z. Turkiya va Rossiya o'rtasidagi muvozanat, raqobat va hamkorlik	98
Jurayev F.X. Sud ekspertlik faoliyatida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish masalalari	104
Sud ekspertiza sohasida xorijiy tajriba o'rganildi	114

Muassis:

**O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi
Respublika sud ekspertiza markazi**

Bosh muharrir:
Akram XALILOV

Bosh muharrir o'rinbosari:
Uchkun UZAKOV
Mas'ul kotib:
Nuriddin QOLQANOV

Tahrir hay'ati:
Akbar TASHKULOV
Sherzod RABIYEV
Jamshidxon NURITDINOV
Istam ASTANOV
Narzulla JO'RAYEV
Odil MUSAYEV
Oybek SIROJOV
Eshmuxamad KADIROV
Shuhrat RAXMANOV
Saidillaxodja SAIDXODJAYEV
Shuxrat OTAQULOV
Nilufar XALILOVA
Nadejda KORABLYOVA
Murodjon MAXKAMOV
Sanjar KUDRATOV
Niyyora SAITOVA

Mas'ul muharrir:
Husan NISHONOV

Dizayner:
Faxriddin RAHIMOV

Sahifalovchi:
Malohat TOSHOVA

"O'zbekiston sud ekspertizasi" huquqiy,
ijtimoiy, ilmiy-amaliy jurnali
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligida 2021-yil 4-iyunda
1185-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Tahririyat manzili:
100105, Toshkent shahri, Mirobod tumani
Farg'ona yo'li ko'chasi.
Telefonlar:
(71) 209-11-55 (153 ichki), (93) 171-37-74

web-site: www.sudex.uz
e-mail: info@sudex.uz
facebook.com/sudex.uz
telegram.me/sudex.uz

Jurnal 10.10.2025-yilda bosmaxonaga topshirildi.
Qog'oz bichimi 60x84 1/8. Ofset usulida bosildi.
Shartli 6,75 bosma taboq. Buyurtma № 001. Adadi 100.

"Reliable Print" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Qushbegi ko'chasi, 6-uy.

YANGI O'ZBEKISTON – XALQCHIL SIYOSAT VA MILLIY TIKLANISH DAVRI

QOLQANOV

*Nuriddin Tashpulatovich,
siyosiy fanlar bo'yicha
falsafa doktori, dotsent,
2-darajali yurist*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston taraqqiyot bosqichi xalqchil siyosat va milliy tiklanish davri sifatida tahlil qilinadi. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlarda inson qadri, xalq manfaatlari va fuqarolik jamiyati institutlarining o'zni ochib beriladi. Yangi Konstitutsiya, xalq qabulxonolari, yoshlar va ayollarni qo'llab-quvvatlash dasturlari, milliy merosni tiklash hamda ochiq va adolatli boshqaruv tizimining shakllanishi bayoni orqali mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichi yoritiladi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, xalqchil siyosat, milliy tiklanish, mustaqillik, inson qadri, islohotlar, fuqarolik jamiyati, konstitutsiya, ma'naviyat, milliy qadriyatlar, ochiq boshqaruv.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается этап развития Нового Узбекистана как период народной политики и национального возрождения. Анализируются реформы, проведенные за годы независимости, в центре которых стоят ценность человека, интересы народа и роль институтов гражданского общества. Особое внимание уделено принятию новой Конституции, деятельности народных приемных, программам поддержки молодежи и женщин, возрождению национального наследия, а также формированию открытой и справедливой системы государственного управления.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, народная политика, национальное возрождение, независимость, ценность человека, реформы, гражданское общество, конституция, духовность, национальные ценности, открытое управление.

ANNOTATION

This article examines the development stage of New Uzbekistan as an era of people-oriented policy and national revival. It analyzes the reforms carried out since independence,

focusing on human dignity, the interests of the people, and the role of civil society institutions. Special attention is given to the adoption of the new Constitution, the functioning of People's Reception Offices, programs supporting youth and women, the restoration of national heritage, as well as the establishment of an open and fair governance system.

Key words: New Uzbekistan, people-oriented policy, national revival, independence, human dignity, reforms, civil society, constitution, spirituality, national values, open governance.

Inson baxtli bo'lishi uchun erkin bo'lishi, erkin bo'lishi uchun esa mustaqil bo'lishi kerak. **Mustaqillik** bu davlatning o'z siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotini tashqi aralashuvsiz, erkin va suveren tarzda boshqarish qobiliyati hamda huquqidir. Mustaqillik har bir mamlakatning eng oliy qadriyati va xalqning erkin taraqqiyotini ta'minlaydigan asosiy shart-sharoit hisoblanadi. 1991-yil 1-sentabri nafaqat davlat mustaqilligi, balki millatning o'zligini anglash, tarixiy xotirani tiklash va milliy taraqqiyot sari dadil qadam qo'yish davrining boshlanishi edi. Oradan 34 yil o'tdi. Bugun biz Yangi O'zbekiston sari dadil odimlayotgan, xalq manfaati ustuvor bo'lgan, inson qadri yuksak darajaga ko'tarilgan davlatda yashayapmiz. Ushbu davrni haqli ravishda xalqchil siyosat va milliy tiklanish davri deb atash mumkin.

So'nggi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning markazida inson qadri turadi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning "Inson qadri uchun" degan tamoyili amalda o'z ifodasini topmoqda. Endilikda xalq davlat uchun emas, balki davlat idoralari xalq uchun xizmat qiladi. Har yili mustaqillik bayramini alohida shior ostida nishonlash go'zal an'anaga aylandi. Bu yil mustaqilligimizning 34 yilligi "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" degan ezgu g'oya asosida nishonlanishi ham bevosita avvalgi islohotlarimizni o'zida mujassam etgan. Albatta, ulug' shiorlar butun jamiyatning maqsad-muddaolarini yagona maqsad yo'lida birlashtirgan va yangi zafarlarga yo'naltirib, real kuchga aylangan.

Bugungi kunda huquqiy demokratik davlat qurish, aholining siyosiy madaniyati va faolligini oshirish, davlat organlari va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning shaffofligini ta'minlash borasida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar, avvalambor, mamlakatimizda inson va uning manfaatlari nechog'lik muhim ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida olib borilayotgan



xalqchil, adolatli va keng qamrovli islohotlar butun xalqimiz hayotida o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Bunda xalq manfaati barcha narsadan ustun darajaga olib chiqildi, barcha darajadagi davlat boshqaruvi organlari o'z faoliyatini "xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan tamoyil ostida olib bermoqda.

Misol uchun, "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili" deb e'lon qilingan 2017-yildan boshlab barcha darajadagi rahbarlar xalq orasiga tushib, ularning muammolarini joyida eshitish va hal etishi amaliyoti yo'lga qo'yildi. Har bir viloyat, tuman va shaharda tashkil etilgan Xalq qabulxonalari bugun millionlab fuqarolarning murojaatlarini o'rganib, ularga amaliy yordam ko'rsatmoqda.

Yana bir muhim misol – "Mening konstitutsiyam" tamoyiliga asoslangan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2023-yilda umumxalq referendumini orqali qabul qilinishi bo'ldi. Bu xalqning bevosita davlat boshqaruvida ishtirok etishidan dalolatdir.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining yigirma yetti yilligiga bag'ishlangan tantanali

marosimdagi nutqida "Bugun bir fikrni to'la ishonch bilan aytish mumkin: **butun jamiyatimizni qamrab olayotgan ana shunday ezgu ishlarimiz tufayli hayotimizda fayz-u baraka, millatlararo do'stlik va mehr-oqibat tuyg'ulari kuchayib bermoqda.** Eng muhimi, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirish yo'lida olib borayotgan ichki va tashqi siyosatimiz el-yurtimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda. Xalqimizning roziligi – bizning, birinchi navbatda, Prezident sifatida mening, barcha bo'g'indagi rahbar va mutasaddilar, deputat va senatorlar, butun davlat idoralarining faoliyatiga berilgan eng oliy va eng adolatli bahodir"¹ degan fikrni bildirgan edilar.

Milliy tiklanish – o'zligimizga qaytish va yangi avlodni tarbiyalashdir. Milliy tiklanish – bu o'z tariximiz, qadriyatlarimiz, tilimiz, madaniyatimiz va dinimizga bo'lgan e'tiborning ortishi, uni asrab-avaylashdir. Yangi O'zbekistonda bu borada muhim ishlarga qo'l urilmoqda.

¹ Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi <https://yuz.uz/uz/news/prezident-shavkat-mirziyoevning-ozbekiston-respublikasi-mustaqilligining-yigirma-toqqiz-yilligiga-bag'ishlangan-tantanali-marosimdagi-nutqi>

Masalan, tarixiy shaxslar va olimlarimiz – Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Al-Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek merosining o'rganilishi, ularning ilmiy-tarixiy faoliyatini xalqimizga yetkazish ishlari boshlangan. O'zbekistonning qadimiy shaharlaridagi (Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Toshkent) madaniy meros obidalari ta'mirlanmoqda va xalqaro darajada targ'ib qilinmoqda.

Milliy qadriyatlarimizga asoslangan ma'naviy tarbiya bugun maktab va OTM dasturlarida o'z aksini topmoqda. Yangi avlodning ma'naviyatli, vatanparvar, bilimli va tashabbuskor bo'lib ulg'ayishi uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilinib, u orqali O'zbekiston o'zini ijtimoiy davlat sifatida belgiladi. "Inson – jamiyat – davlat" tamoyili hayotga tatbiq etildi. Kambag'allikni qisqartirish, aholi bandligini oshirish, zamonaviy ish o'rinlarini yaratish, ehtiyojmand toifalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturlari samarali natija bermoqda.

Misol uchun, "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari", "Temir daftar" kabi ijtimoiy dasturlar orqali minglab oilalarga yordam berilmoqda. Yoshlar orasida "Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!" shiori bilan ommaviy harakatlar, loyihalar va grant dasturlari amalga oshirilmoqda.

Davlat va jamiyat hamkorligi – fuqarolik jamiyatining uyg'onishidir. Yangi O'zbekiston – bu ochiq, adolatli va shaffof boshqaruv tizimiga asoslangan jamiyatdir. Fuqarolik jamiyati institutlari – nodavlat-notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va bloggerlar

faoliyati faol qo'llab-quvvatlanmoqda. Misol uchun, bugun aholining ko'plab muammolari ommaviy axborot vositalarida yoritilib, tezda hal qilinmoqda. "Ochiq budget", "E-auksion", "Yagona interaktiv davlat xizmatlari portal" kabi raqamli tizimlar orqali fuqarolar davlat xizmatlaridan foydalanmoqda, bu esa shaffoflikni kuchaytiradi.

Bundan tashqari, O'zbekistonda olib borilayotgan tashqi siyosat ham xalqchil va ochiqlik tamoyillariga tayangan. Mamlakatimiz Markaziy Osiyoda ishonchli va ochiq hamkor sifatida tan olindi. Qo'shni davlatlar bilan do'stona aloqalar mustahkamlanmoqda.

Yangi O'zbekiston – bu oddiy shior emas, balki har bir fuqaroning hayotiga bevosita ta'sir qilayotgan yangilanish va uyg'onish davridir. Xalqchil siyosat orqali xalq dardi eshitilmoqda, milliy tiklanish orqali esa o'zligimizga bo'lgan ishonch kuchaymoqda.

Mustaqillikning 34 yilligi – bu faqatgina tantanali sana emas, balki oramizdagi har bir inson o'z hayotida ijobiy o'zgarishlarni ko'rayotgan davrni anglatuvchi tarixiy bosqichdir.

Davlat mustaqilligi – xalq erkinligi, davlat suvereniteti va milliy o'zlikni asrashning eng muhim kafolatidir. U xalqning siyosiy iroda ifodasi, erkin taraqqiyotga intilish ramzi hamda kelajak avlodlarning barqaror hayotini ta'minlaydigan tayanch omildir.

Shunday ekan, har birimiz bu yurtga mehr bilan xizmat qilish, tinchlikni asrash, va eng muhimi – Yangi O'zbekiston bunyodkori bo'lishdek yuksak mas'uliyatni chuqur anglab yashashimiz kerak.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. Odilqoriyev X., Razzoqov D. Siyosatshunoslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2008.
4. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. – Toshkent, 2002.